



Amerika Qo'shma Shtatlari va O'zbekiston xalq diplomatiyasida nodavlat – notijorat tashkilotlarining o'rni

Boysariyev Muhriddin Muzaffar o'g'li

O'zbekiston milliy universiteti Tarix fakulteti, magistranti.

Kirish qismi. O'zbekiston Respublikasi 1991 – yil 31 – avgust kuni mustaqilka erishgandan so'ng, ko'plab mamlakatlar bilan diplomatik aloqalarni o'rnatdi. Bu orqali yangi tashkil etilgan mustaqil davlatning tashqi aloqalardagi ilk qadamlari hisoblandi. Shu asnoda ichki va tashqi muammolarni tinch yo'sinda hal qilish uchun oddiy fuqarolar tomonidan “xalq diplomatiyasi” foydalanish nazarda tutildi. Xalq diplomatiyasi – oddiy insonlar va nodavlat – notijorat tashkilotlarining o'zaro aloqalari, ko'p tomonlama foydali hamkorligi, madaniyat, an'analar va boshqa mamlakatlari fuqarolari hayotini yaxshiroq tushunishga imkon beruvchi norasmiy muloqot turi hisoblanadi va bugungi kunda dunyo mamlakatlari bu o'zaro aloqa almashuv uslubidan oqilona foydalanib kelishmoqda.

Asosiy qism. O'zbekiston va AQSH fuqarolari o'rtasidagi o'zaro aloqalar mustaqillik yillarida juda ham yaxshi rivojlanib kelmoqda, lekin bu ikki davlatning xalq diplomatiyasidagi tarixiy ildizlari Sobiq SSR davrida bo'lganligi va o'zbeklar tomonidan tashkil qilingan mustaqil jamiyat ro'li yuqori o'rinda turgan. Bu jamiyat **“Turkiston – Amerika Assotsiyasi”** hisoblanib, 1958 – yilda Abdulla Xo'ja tomonidan Priston Avenueda tashkil qilingan bo'lib, bu jamiyatning asosini sobiq sho'ro davrida vatanidan chiqib, Qo'shma Shtatlarga kelib qolgan turkistonliklardan tuzilgan. Tashkilotning asosiy maqsadi turli xil madaniy va marifiy tadbirlar o'tkazish orqali AQSH fuqarolari hamda turkistonliklarni o'zaro aloqalarini mustahkamlab, ularning birdamligi, jipsligini taminlashdan iborat bo'lgan. Bu kabi maqsadlarni oldinga qo'yib har yili ona tilini saqlash, urf – odatlar va madaniyatimizni asrab avaylash maqsadida madaniy tadbirlar o'tgazib turishgan. Bu orqali u yerda istiqomat qilib kelayotgan turkistonlik aholini mahaliy aholi bilan jipsligini kuchaytirish maqsad qilingan.



Bunga qo'shimcha tarza **SIETL – TOSHKENT** do'stlik uyushmasi hisoblanadi, va bu shahar aholisi Toshkent bilan 1973 – yildan beri aloqalarga ega hisoblanadi. Bu aloqning o'rnatishning asosiy sababi 1970-yillarda, AQSh boshchiligidagi G'arb va SSSR yetakchiligidagi kommunistik blok orasida poyga avjiga chiqqan paytda, ayrim faol amerikaliklar Sovet Ittifoqi aholisi bilan bog'lanishga, har ikki davlat rahbarlarini atom qurollaridan voz kechib, tinchlik yo'lida birga ishlashga undash maqsadida sovet shaharlari bilan aloqa o'rnatishga urinadi. Bu uyushmining prezidenti Dan Peterson fikriga ko'ra - "Biz siyosiy emas, madaniy rishtalar tarafdorimiz. Siyosat o'z yo'liga, lekin biz xalq diplomatiyasi tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlovchi vosita deb bilamiz va barcha say-harakatlar shu yonalishda",- deydi. Yana bu insoning aytishicha, Sietlda bugun yuzlab o'zbekistonliklar yashaydi. Jamoa orasida san'atkorlar, madaniyat va ilm-fan namoyondalari bor. **"Ilhom"** teatri a'zolari shahar teatr sahnalarida O'zbekiston o'tmishi va bugunini aks ettiruvchi asarlar ijro etib turadi. Jamoa vaqti-vaqti bilan turli sayllar va kechalar tashkil etadi. Navro'z keng nishonlanadi.

Tadbirlarda O'zbekistonning AQShdagi elchisi ham qatnashib turadi. Yaqinda, Sietl-Toshkent birodarligining 35 yilligi tantanasida, so'zlagan elchi Abdulaziz Komilov "xalqlarni aslida siyosat emas, madaniy aloqalar yaqinlashtiradi" - degan edi.

"Xalqlar do'stligi har narsadan ulug'",- deydi Margarita Xopshteyn. "Chunki do'stlar bir-birining dardiga malham bo'lishga harakat qiladi" - deydi tashkilot rahbari.

Bu kabi nodavlat tashkilotlardan mustaqillik yillarida koplav tashkil etilgi, chunki bu orqali Amerika Qo'shma Shtatlardagi o'zbek bo'lgan fuqarolarni birlashtirish va mahaliy aholi bilan ingeratsiya jarayoni kuchaytirishdan iborat, chunochi har yili minglab o'zbek hamyurtlarimiz AQSH o'qish va ishlash uchun migratsiya qilishadi. Bu kabi insonlarga yordam berish maqsadida ham bu kabi jamiyatlari muhim ro'l o'ynab kelmoqda. Misol tariqasida 2009 – yilda tashkil etilgan **"CHIKAGO O'ZBEK – AMERIKA ASSOTSIATSIYASI"** bo'lib, bu nodavlat jamiyat Chikago shahrida va uning atrofida yashashchi o'zbek millatiga mansub aholi uchun Sirojiddin Nasafiy tomonidan tashkil etilgan. Bu jamiyatni asosiy maqsadi bor. Bular:

- Jamiyat orasida o'zbek tilini asrab – avaylash va rivojlantirish;
- O'zbek madaniyati va urf- odatlarini



saqlash va kundalik hayotga tatbiq etish;

- Diniy qadriyatlarga amal qilish;
- Farzandlarga o‘zbek millati va urf-odatlarini

haqida bilim berish;

- AQShga yangi kelgan millatdoshlarga

har tomonlama yordam ko‘rsatish;

- Navro‘z, Ramazon va Qurbon hayitlari

hamda Mustaqillik kuni bayramlari munosabati

bilan doimiy madaniy-ma‘rifiy tadbirlar uyushtirib,

ularda o‘zbek jamiyati vakillari ishtirokini

ta‘minlash.

Yuqorida tashkilotlarga yana misol tariqasida AQSHning Nyu York shahrida tashkil etilgan “**MURUVVAT**” markazi hisoblanadi. Bu markaz Tamara Nazarova tomonidan 2008 – yilda tashkil qilingan bo‘lib, uning asosiy maqsadlaridan biri shuki AQSHdagi o‘zbek fuqarolariga va o‘zbek millatiga mansub insonlarga moddiy yordam ko‘rsatishdan iborat hisoblanadi. Bundan tashqari mahalliy aholi bilan yaqin aloqalarni o‘rnatish uchun turli xil bayramlar va madaniy kechalar o‘tkazib kelishmoqda.

Bundan tashqari “**Atlanta – O‘zbek jamiyati**” ham ikki xalq o‘rnatida aloqalarni o‘rnatishda muhim ro‘l o‘ynab kelmoqda. Bu jamiyat Rahmon Eshov tomonidan tuzilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi O‘zbekiston va AQSHning madaniyat o‘chog‘i yaratish, biznes aloqlarini olib boorish, ta‘limga keng yo‘l ochishdandan iborat hisoblanadi. Bu nodavlat jamiyati ham yuqoridagi uyushmalarga o‘xshab, AQSHdagi mahalliy aholi bilan madaniy aloqalar kirishishiga komaklashish, ular bilan muammoli vaziyatlarida ko‘mak berishdan iborat hisoblanadi. Bu uyushma faqatgina o‘zbek millatiga mansub xalq vakillarini emas balki, u yerda istiqomat qilib kelayotgan aholini ham jalb qilishgan, chunki u yerda ham o‘zbek madaniyatiga bo‘lgan chiziqish katta hisoblanadi, Bu kabi omillarni hisobga olgan holda uyushma vakillari yilda bir necha marota madaniy tadbirlar uyushtirib turishadi, va AQSH fuqarolari ham bunga faol qatnashib kelishmoqda. Bu uyushma yana turizm masalasida ham O‘zbekiston tarixi va madaniyati yoyishda asosiy ko‘lamli vaziflarni



bajarib kelmoqda. Ularning tashabbusi bilan har yili ming Amerika fuqarolari O'zbekiston hududiga qadimiy shaharlarimiz, madaniyatimiz va ziyoratgohlarimizni ko'rishga kelishadi.

Bilamizki, mustaqillikdan keyin O'zbekiston Respublikasi ko'plab mamlakatlar bilan **“do'stlik jamiyatlari”** tuzishga alohida e'tibor berib keldi. Bu tadbir Mamlakatimizda faol **“xalq diplomatiyasi”** asosida xorijiy davlatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor desak adshmagan bo'lamiz. **“O'zbekiston – AQSH”** do'stlik jamiyati ikki xalq o'rtasida madaniy-gumanitar aloqalar kengayayotgani ilm-fan, ta'lim, madaniyat, sport va turizm sohalaridagi qo'shma loyihalarni amalga oshirishga katta turtki bermoqda. Ta'limda xalqaro standartlarni joriy etish, zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan o'rtoqlashish asosiy vosita bo'lib hizmat qilib kelmoqda. Bu jamiyatning qilgan ishlari misolida 2017 yil oktyabr oyida AQSH va Kanadaning Buxoro yahudiylari kongressi tomonidan Nyu-York shahrida **“O'zbekiston rivojlanish islohotining yangi bosqichida”** mavzuidagi xalqaro konferensiya tashkil etildi. Unda **“O'zbekiston – AQSH”** do'stlik jamiyati a'zolari ishtirok etib, jamiyat hayotining barcha jabhalarida olib borilayotgan islohotlar haqidagi fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashdi. Bunda ko'zlangan maqsad esa **“O'zbekiston – AQSH”** do'stlik jamiyati o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, AQSHdagi fuqarolik hamjamiyati institutlari, xorijdagi vatandoshlar bilan do'stona aloqalarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratish hamda mamlakatning tinchliksevar siyosati, demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurish borasidagi O'zbekiston pozitsiyasini, shuningdek, millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish tamoyillariga alohida e'tibor berishga kelishildi.

Xalq diplomatiyasi modeli sifatida hizmat qilib kelayotgan **American Uzbekistan Association (AUA)** ham muhim ro'l o'yna kelmoqda. Bu jamiyat Kamilla Zakirova tomonidan O'zbekiston va AQSH yoshlarini birlashtirish maqsadida tashkil qilingan. Bundan tashqari bu jamiyatni Ichida 2019 - yilda **“Rishta Fellowship”** yo'nalishi tashkil etildi va uning asosiy maqsadi esa, AQSh va O'zbekiston xalqlari o'rtasidagi akademik, madaniy va professional almashinuvlarni qo'llab-quvvatlaydi. **AUA** ning Amerika Qo'shma Shtatlari va O'zbekistondagi keng mutaxassisleri va institutlari bilan hamkorlikda Rishta Fellowship O'zbekistondagi rivojlanish ishlari bilan shug'ullanish uchun AQShdan ko'ngilli stipendiyalarni yuboradi. O'zbekistondagi mezbbon muassasalar bilan hamkorlikda



tashkil etilgan Rishta stipendiatlari maktab va universitetlarda dars berish, davlat sog‘liqni saqlash muassasalari bilan ishlash, fuqarolik jamiyati tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash hamda O‘zbekiston san’at va madaniyat xodimlari bilan hamkorlik qilishga e’tibor qaratishi mumkin.

Xulosa. AQSH va O‘zbekiston o‘rtasidagi nodavlat – notijorat tashkilotlar ikkila xalq o‘rtasidagi madaniy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yishda mumkin ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu jamiyatlarning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari orqali mahalliy aholi bilan bilan do‘stlik rishtalarni kengaytirish, aloqlarni yangi yo‘nalishlariga yo‘l ochish, ikki davlat fuqarolari o‘rtasidagi mojarolarni tinchlik yo‘li bilan amalga oshida mumhim amallarni bajarmoqda. Albatta, shuni astib o‘tish kerakki, bu kabi yo‘nalishlarda hali ishlar davom ettriliyapti, ya’ni xalq diplomatiyasida yangi bosqichga olib kelmoqda, bunda bu tashkilotlarning ikkala davlatda ilmiy darajadagi firka almashunuvlar konferensiyalar ham bu yo‘nalishlarni poy devori bo‘lib hizmat qilajak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Almardonov. O. “ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИГА ДОИР”. Annotatsiya. MILLIY UNIVERSITET XABARLARI. 2020 – yil. 7 - bet
2. “Vatandosh” madaniy – marifiy gazetasi. 2011 – yil 24 – fevral soni. 3 – 4 betlar
3. Mavlon Shukzoda. “Amerikalik o‘zbeklar”. “Fan” nashiriyoti. 2007 – yil.
4. Ruslan Izimov. “The Dynamics of the US-Uzbekistan relations”. 8 - bet

Internet saytlar

1. amerikaovozi.com
2. americauzbekistan.org
3. kun.uz
4. uzbekembassy.com
5. uza.com